

## QIZILQUM HUDUDLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Jalilov Mirsaid Bektosh o`g`li

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix kafedrasi o`qituvchisi Mustaqil tadqiqotchi

Turdiyev Javlon Bolmuhammadovich

Samarqand viloyat Qo`shrabot tuman

XTBga qarashli 83-maktab Direktori

### **Anatatsiya**

Navoiy viloyati hududining asosiy yer maydoni Qizilqum cho'llariga to'g'ri keladi. Viloyatning katta qismini egallagan Qizilqum hududida uzoq vaqt olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida mintaqani eng qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilganligi isbotlangan<sup>1</sup>. SHu bois Qizilqum haqida to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

**Kalit so`zlar:** oyog`og`itma, toshmasjiti, temirchi, voronkasimon kon, fosfor zavodi, toliboy, kata qizil, uzun qizil.

Qizilqum o'zining o'lchamiga ko'ra bir mamlakatdir. Qizilqum cho'li Turon tekisligining katta qismini egallab, Sirdaryo va Amudaryoning oralig'ida joylashgan. U janubdan janubiy-sharqqa qarab Zarafshon vodiysi hamda Nurota tog' tizmalari bilan, janubiy-g'arbda Amudaryo vohasi bilan, shimoliy-g'arbda Orol dengizi va shimol hamda shimoliy-sharqda Sirdaryo vohasi bilan chegaradoshdir. Ushbu hududlardagi cho'lning umumiyy maydoni 300 ming km<sup>2</sup> ga teng bo'lib, sharq va g'arbda Markaziy Osiyoning ulkan daryolari Sirdaryo va Amudaryo bilan chegaradosh<sup>2</sup>. U o'zining geografik joylashuvi va ta'siri jihatdan o'zgacha xususiyatga ega bo'lib, shu tufayli unga qo'shni bo'lgan hududlarning ob-havosiga, iqlimiga ta'sir ko'rsatadi. Bu hudud janubiy-sharqdan shimoliy-g'arbga qarab pasayib boradi. Uning o'rtacha mutloq balandligi 200-300 m bo'lsa, janubiy-sharqda 350-400 m, shimoliy-g'arbda

<sup>1</sup> Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М.: 1974; Бадер О.Н. Проблема смещения ландшафтных зон в голоцене и археология. – в кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М.: 1974; Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный лиялакан. Этапы древнейшего заселения и освоения внутренних Кызылкумов. –М.: Наука. 1975; Мамедов Э. Палеоэкология человека каменного века в пустынях Средней Азии. – в кн.: Культура и искусства древнего Хорезма. – М.: Наука. 1981; Мирзаев А. Эволюция обстановок осадконакопления известковый состав морских формаций палеогена Кызылкумов. – Ташкент, автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора геолого-минералогических наук 2012; Хошимов Х. Оёқоритма макони-илк неолит даври тош индустрияси. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2019 йил; Звонкова Т.В. Бухарская область.|| Природные условия и ресурсы Юго-Западного Узбекистана. – Ташкент.: 1965; Орловский Н.С. Механизм опустынивания и его последствия || Опыт борьбы с опустыниванием в СССР. – М.: Наука. 1988; Szymezak K., Khudzhanazarov M. Excavation in Ayakagytma the site, Se Kyzil-Kum, Uzbekistan. Season 1999 // General Rapport. Varsovie-Samarcande, 2004;

<sup>2</sup> Одинаева З.Қизилқум саҳросида баҳор.-Т.: Мұхаррир, 2008 й.-59

esa 90-100 metrga tushib qoladi. Qizilqumning g'arbida Orol dengizi va uning janubidagi Quvondaryo, YAngidaryoga qadar cho'zilgan.

Qizilqumning sharqida Navoiy, Buxoro viloyatlari orqali chegaralanib, Amudaryo yoqasiga qadar yetib borgan. Osiyodagi Qoraqum, Gobi-Taklamakan kabi cho'llarga qaraganda Qizilqumning tabiatini alohida xususiyatga ega. Qizilqum hududida bir necha ming yillar davomida o'ziga xos konchilik ishlari rivojlanib, eramizdan avvalgi davrlardayoq buyoq uchun oxra, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, feruza, sopol idishlar uchun tuproq (glina) qazib olingan. Akademik Yuriy Buryakovning ma'lumot berishicha, Qizilqumdan 20 dan ortiq foydali qazilmalar - osh tuzi, kvars, yashma toshi, mis, oltin kabi muhim qazilma boyliklari qazib olingan. Xususan, Konimex tumani hududidan qadimda Lavlakon, Mullalidagi konlardan osh tuzi, Temirchidan (Konimexdan 30 km) feruza 16 ta voronkasimon konlardan qazib olingan<sup>3</sup>. Qizilqumning yana asosiy xususiyatlaridan biri yer osti suvlari mavjud bo'lib, 10 metrdan 80 metrgacha masofa qazilsa, suv chiqarish mumkin. Qizilqumning florasi turli tumandir.

XX asrning 40-yillarida Qizilqum tabiatini tadqiq qilgan zoolog Lemani bu yerda o'simlik dunyosi boyligini yozib qoldirgan. Mo'l-ko'l o'simliklardan iborat bo'lган yaylovarda Samarqand, Buxoro, Karmana, Konimex, Qizilo'rda, CHimkent va Qoraqalpog'istonning yuz minglab chorvasi boqilgan<sup>4</sup>.

Sahroning Qizilqum deb atalishiga sabab, uning ko'p qismini egallab yotgan qumlar rangining qizilligidir. Qizilqumda qadimgi qoldiq past tog'lardagi qizg'ish jinslarning nurashidan hosil bo'lган qoldiq qumlar ko'p yerda qizil rangga ega. Qizilqumning janubiy qismida esa qumlar rangi to'q kul rang. Bu qumlar Zarafshon daryosi olib kelgan yotqiziqlardan hosil bo'lган, qizil tuproqlar bilan aralashmagan. Qizilqumning uzunligi chamasi 2,5 ming kilometrdan 3 ming kilometrgacha cho'ziladi. Eni 300 kilometrga qadar cho'zilib, uning oralari tog' yon bag'irlari bilan ajralib turadi, ya'ni, sahro Yomonqizil va Kattaqizilga bo'linadi. Ular o'rtasidagi chegara tog'lar va ularning etagidagi tekislik yerlari bilan ajratiladi. Sahro aholisi tomonidan ikkala Qizilqum umumiyl holda "Taueliboy" (Tayelibay) eli deb nomlangan. Qizilqum g'arbdan sharqqa qarab ulanib yotgan bo'lsa, janubdan shimolga qarab tog'lar bilan bo'lingan. Bu hududda Oqtov, Bo'kantov, Oltintov, Aristantov, Quljuqtov, Lau-Lautov (Uzunquduq tarafda) tog'lari bor<sup>5</sup>.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Qizilqum cho'li tekis relefga ega bo'lib, janubiy-sharqdan shimoliy-g'arbgaga qarab pasaygan va bu pasayish hammasi bo'lib 300-53 m ni tashkil qiladi. Ammo cho'l relefi quruq va yopiq havzalar hamda bir-biridan uzoq va balandligi dengiz sathidan 888 m gacha yetadigan tog'lardan tarkib topgan. Mintaqada yirik qumli landshaftlar orasidan kuchli buzilgan pastqam tog'lar ko'tarilib turadi: Tomditov (888 m),

<sup>3</sup> Одинаева З.Қизилқұм саҳросида баҳор.-Т.: Мұхаррир, 2008 й.-Б.10-13

<sup>4</sup> Жусип Әлкожа ұлы. Тағелібай. -Кенимек, 1998 ж,-Б.5-6

<sup>5</sup> Жусип Әлкожа ұлы. Тағелібай. -Кенимек, 1998 ж,-Б.6

Quljuqtov (784 m), Bo'kantov (758 m), Aristantov (698 m), Auminzatov (639 m), Jetimtov (521 m), Sulton-Uvaystov (485 m), Qozoqtov (394 m) va boshqalar. Uning landshafti ham betakrorligi, rang-barangligi, turfali xususiyatlari, o'ziga maftun etuvchi joylari, hududlari va ob'ektlari bilan noyobdir. Masalan, qurib qolgan qadimiylarning o'rni paydo bo'lgan, bo'yi yuz va undan ham ortiq kilometrlarga cho'zilgan Oyoqog'itma, Mingbuloq, Qoraqatin hamda Mullali kabilalar alohida etiborga molik. Konimex, Tomdi, Uchquduq tumanlari joylashgan yerlari geografik o'rni Turon pastekisliklari, O'rta Osiyoning cho'l va cho'llashgan yerlari kiradi.

Bu Qizilqumdagagi uchta tuman sharqiy Qozog'istonning Chimkent viloyati, g'arbda Qoraqalpog'iston bilan, janubda Buxoro viloyati, shimolda Qozog'istonning Qizilo'rda viloyati bilan chegaralanadi. Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi cho'l hududlarni tabiiy-geografik rayonlashtirish T.Zvonkova<sup>6</sup> tomonidan amalga oshirilgan. U Qizilqumdagagi qumlarni landshaftlarga ko'ra turlash va xaritalashtirish asosida to'rtta tabiiy-geografik bo'limlarga ajratgan: 1) Quyi Amudaryo, 2) SHimoliy Qizilqum, 3) Markaziy Qizilqum hamda 4) Janubiy Qizilqum. Ushbu bo'limlarning har biri alohida tabiiy-geografik rayonlarga ajraladi. Masalan, Markaziy Qizilqum bo'limi quyidagi rayonlarga bo'linadi:

1) past va shag'alli cho'l rayoni, 2) yarim cho'l va qoyatoshli Quljuqtov va 3) qumli-gilli, shag'alli va sho'rxokli cho'llar<sup>7</sup>.



Qizilqumning katta hududni egallagani bois uning iqlimi shimoldan janubga qarab o'zgarib boradi. Qizilqum hududining yaylovlari ob-havosi keskin kontinentalligi bilan xarakterlanadi. O'rtacha yillik yog'in miqdori 105-160 millimetrnini tashkil etadi va yog'ingarchilikning asosiy qismi qish-bahor mavsumiga to'g'ri keladi. L.Gayevskaya, N.Salmanov ma'lumotlariga ko'ra

<sup>6</sup>Звонкова Т.В. Бухарская область.\\ Природные условия и ресурсы Юго-Западного Узбекистана. – Ташкент.: 1965. -С. 56.

<sup>7</sup> Мирзаев А. Эволюция обстановок осадконакопления известковенный состав морских формаций палеогена Кызылкумов. – Ташкент, автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора геолого-минералогических наук, 2012.- С.12

umumiy yog'ingarchilik miqdorining 45-50 foizi bahor, 35-40 foizi qish, qolgan 10-20 foizi esa kuz va yoz fasllarida sodir bo'ladi. Qizilqum o'zining o'ta qurg'oq (arid) jazirama issiq xarakteri bilan ajralib turadi. Ob-havo harorati yil mavsumlariga qarab keskin o'zgaruvchanlikka ega. Meteorologik stansiyalar ma'lumotlariga ko'ra o'rtacha yillik havo harorati  $+13 +17^{\circ}\text{S}$  ni, yoz davridagi harorat  $+45^{\circ} +47^{\circ}\text{S}$  ni, qish davridagi mutlaq minimal harorat esa  $-25 -30^{\circ}\text{S}$  ni, havoning o'rtacha nisbiy namligi 45-55 foizni, iyul oyida esa bu ko'rsatgich 13-18 foizgacha pasayadi. Mazkur hudud iqlimining xususiyatlaridan yana biri tez-tez esib turadigan, aksariyat holatlarda esa kuchli, shamollardir. Uning tezligi sekundiga 20-25 metrgacha yetadi. Bu esa tuproq va o'simlik qoplamiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHamol aksariyat hollarda shimoldan, shimoli-g'arbdan va sharqdan esadi. YOz oylarida issiq shamol "garm sel" esib, havoning nisbiy namligi keskin pasayadi.

Qizilqumdagagi hayvonot dunyosi rang-barang va o'zgachadir. Bu yerdagi hayvonlar o'simliklar kabi iqlimi sharoitdagi qurg'oqchilikka, yozning ekstremal jazirama haroratiga hamda suvsizlikka juda moslashib olgan. Bu yerning hayvonot dunyosi boshqa joylardan turlar xilma-xilligining kam sonliligi, o'ziga xos rangli libosga ekanligi va tungi hayot faolligi bilan ajralib turadi<sup>8</sup>.


Qizilqumda 600 dan ortiq o'simlik turlari mavjud. Ular ichida keng bahorda o'suvchi efemer va efemeroидlar – saksovul, shuvoq, quyansuyak, juzgen, seleu, isiriq, kavraklar tarqalgan. Chorva uchun rang, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, lola, arpaxon, boychechak, chuchmoma kabi o'simliklar juda ozuqabop hisoblanadi. Yozning boshlanishi bilan ular sarg'ayib qoladi, qurg'oqchilik va sho'rxok yerlarga moslashgan o'simliklar esa o'saveradi<sup>9</sup>. Qizilqumning hayvonlari turli tumandir. Qizilqum suvsiz o'lka bo'lgani uchun jonivorlar oz miqdorda yashaydi. Qizilqumning tog'li joylaridagina kiyiklar yashaydi. Bundan tashqari tulki, quyon, qashqir, bursiq kabi hayvonlar uchraydi. Qizilqumda eng ko'p tarqalgan jonivor sichqonlardir. Qushlardan bo'zto'rg'ay, mullato'rg'ay, yovto'rg'ay, chumchuqlar uchraydi. Aholi yashamaydigan hududlarda qirg'iy, tog'li joylarda burgut, ukki kabi qushlar ham uchraydi. Bir so'z bilan aytganda Qizilqumning noyob fauna va flora dunyosidan namunalar Zarafshon shahrida 1983 yil tashkil etilgan "Qizilqum sahrosini o'zlashtirish tarixi" muzeyi eksponatlari orasidan joy olgan. Ular orasida uzunligi bir metr keladigan o'rdak burunli dinozavrning chap son suyagi e'tiborimizni tortadi.

Bu noyob eksponat Jalaquduq darasidan topilgan bo'lib, olimlarning ta'kidlashicha bunday turdagagi dinozavrlar bo'r davrida ya'ni 90 million yil avval Qiziqum hududlarida yashaganligi dalilidir. Shuningdek, NKMK ishchisi Saken Norqulovning ta'kidlashicha, ekspeditsiya va razvedka ishlari davomida 700 metr chuqurlikdan dinozavrلarning tosh qotib qolgan suyaklarini ko'rgan. NKMK ishchisi Qazbek Yakubayev Qaraqota fosforit zavodining o'rnini

<sup>8</sup> Шалатонин Б. Тысяча уникумов Кызылкумов. – Навоий, 1997. – Б.51

<sup>9</sup> <http://geografiya.uz/ozbekiston-tabiiy-geografiyasi/11609-qizilqum-tabiiy-geografik-okrugi.html>

qazish paytida yer ostidan dengiz jonivorlarining tishlarini topib olib, o'lkashunos D.Mamirovga olib kelib beradi va bu ashyolar tuman muzeyi ixtiyoriga o'tkaziladi<sup>10</sup>.



### **Qizilqum cho'llaridan topilgan dinozavr qoldig'i<sup>11</sup>**

Ma'lumki, hozirgi Italiya kabi mamlakat hududiga teng Qizilqum cho'li uzra qadimda Titez dengizi bo'lganligi ko'p bor ta'kidlanadi. Dengiz bundan 30 million yillar ilgari, ya'ni, paleogen davrining oxirigacha, mavjud bo'lgan. Darvoqe, muzey eksponatlaridan joy olgan akula tishlari, tosh qotgan baliq boshi va boshqa paleontropolik materiallar NKMK geologik razvedkalari davrida topilgani bu suv havzasining mavjud bo'lganining real isbotidir<sup>12</sup>.



### **Foydalaniman qizilqum cho'llaridan topilgan dinozavr qoldig'i**

1. Асанов Г., Набижонов М, Сафаров И. Ўзбекистоннинг иқтисодий ва ижтимоий жўғрофияси.-Т: Ўқитувчи, 1994 йил.
2. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида. –Тошкент, Абу Али ибн Сино тиббиёт нашри, 2002.

<sup>10</sup> Мамыров Д. Кенимех таңы. Дәйекті деректер мен қисқача әңгимілер. Кенимех.: 1995, -Б.11

<sup>11</sup> "Қизилқум саҳросини ўзлаштириш тарихи" музейи экспонатлари

<sup>12</sup> Мамыров Д. Кенимех таңы. Дәйекті деректер мен қисқача әңгимілер. Кенимех.: 1995, -Б.11

3. Аҳмедов Э., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси. - Тошкент: Ўзбекистон, 2006.
4. Бадов В., Мальгин О., Рахматуллаев О. Золото Кызылкумов. - Москва: Русский паритет, 1999.
5. Бунёдкорлик тимсоли. Санакулов К. таҳ.ост. –Тошкент, 2016.
6. Ветштейн Л.М. Наш – «Навоимаш». – Ташкент: Абдулла Кадыри, 1998;
7. Ветштейн Л.М.Дороже Золота. – Ташкент: Мир экономики и права, 1999.
8. Ветштейн Л.М.Чудесней сплав. Навоий, 1998.
9. Ветштейн Л.М.Чудодеи Чудограда. – Ташкент: Авангард, 2000.
- 10.Ветштейн Л.М.Я – Навоийский цементник. – Ташкент: Абдулла Кадыри, 1999.
- 11.Горевая Л. Рождение в пустыне. – Ташкент: Узбекистан, 1996.
- 12.Истиқболли зиё маскани. Санакулов К. таҳ.ост. –Тошкент, 2015.
- 13.Кучерский Н.И. Золото Кызылкумов. - Ташкент: Шарқ, 1998.
- 14.Қизилқум гавҳарлари. Санакулов К. таҳ.ост. –Тошкент, 2015.
- 15.Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М.: 1974.